



POETIK MAZMUNDA IJODIY TAFAKKUR

*Musurmonkulova Oysulov Yulbekovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasi o'qituvchisi,
erkin tadqiqotchi.*

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta'lim jarayoni, yoshlarning o'z yo'llarini tanlash, tafakkurini rivojlantirish, nostandart fikrlashga o'rgatishda lateral yondashuvning ilmiy-metodik asoslari haqida so'z boradi. Shuningdek, o'quvchilarning savodxonligini oshirish, bilimlarini hayotiy ko'nikmalarga uyg'unlashtirish yuzasidan ayrim tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijodkorlikni rivojlantirish, anglashni farqlash, lateral yondashuv, tahlil turlari, nostandart fikrlash, yangi g'oyalar, noan'anaviy usullar, nazariy asoslar, amaliy natijalar.

Annotation. The article discusses literary education, educational processes, young people's choice of paths, the development of thinking, lateral approaches and scientific-methodological theories of approach in training in non-standard thinking. Also, some recommendations are given on methods used in the approach, ways to use methods, improving students' literacy, aligning their knowledge with life skills.

Keywords: creativity development, comprehension differentiation, lateral approach, types of analysis, non-standard thinking, new ideas, unconventional methods, theoretical foundations, practical results.

Аннотация. В статье речь идет о литературном образовании, образовательных процессах, выборе молодежи своего пути, развитии мышления, латеральном подходе и научно-методических теориях подхода в обучении нестандартному мышлению. Также даны некоторые рекомендации по методам, используемым в подходе, способах использования методов, повышению грамотности учащихся, согласованию их знаний с жизненными навыками.

Ключевые слова: развитие творчества, дифференциация понимания, латеральный подход, виды анализа, нестандартное мышление, новые идеи, нетрадиционные методы, теоретические основы, практические результаты.

KIRISH Har qanday davlatning ta'limi rivoji o'zining milliy yuksalish tamoyillari, tarixiy yutuqlari, xalqning milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy

qadriyatlarga tayanadi. De Bono ta’kidlaganidek, “har qanday yo‘l yangilanishlardan iborat”²⁸⁴. Bu yangilanish va o‘zgarishlar zahirida ta’lim tizimi o‘ziga xos muhim o‘rin tutadi. Yurtboshimiz Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta’limning yuksalishiga bog‘liqligini bejiz ta’kidlamagan.: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.²⁸⁵

Binobarin, milliy pedagogikamiz yaqin yillarga qadar o‘quvchilar mavzuni qayta so‘zlab berishi egallangan bilimlari sifatida qaraldi. Qaysi fan mutaxassis bo‘lmasin olingan bilimlarni amalda qo‘llay olmasa, ishlari samarasizdir. Shu boisdan, bugungi ta’limda bilim o‘rgatishdan ko‘ra, ularni o‘rganishga o‘rgatish muhimdir. Ta’lim yo‘nalishida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan Milliy o‘quv dasturi: DTS, o‘quv dastur va darsliklarda o‘quvchilarni mustaqil qaror chiqarishga yo‘naltirish, turli madaniyatlar va qarashlarga moslashuvchan bo‘lish, nostandart fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, emotsional zo‘riqlashlarni anglash va stressni boshqarish hamda turli vaziyatlarga har tomonlama yondashish va xulosa chiqarish kabi XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish belgilangan. Bu haqda Z. Mirzayeva shunday yozadi: “Adabiy ta’lim sifati dastur va darsliklardagi muayyan bir asarni boshqasiga almashtirish bilan emas, balki prinsipial yondashuvlarni tatbiq etish orqali amalga oshirilishini esda saqlashishimiz zarur”²⁸⁶. Darhaqiqat, 2019-yildagi darsliklar yangilanish jarayonida kuzatilgan adabiyot fani o‘quv dasturida “Susambil” ertagi “Ovchi, ko‘kcha va dono” ertagi bilan almashtirilishi yoki Said Ahmadning “Sobiq” hikoyasi dasturdan chiqarilishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmagani barchamizga ayon. Ta’lim dasturlarini takomillashtirishdan maqsad o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, hayotda o‘z o‘rnini topish va har tomonlama barkamol bo‘lish uchun mustahkam zamin yaratishdan iborat. S.Sayyid aytganidek, bola “dilige nedir yuqtirsa”, adabiyot muallimi o‘z vazifasini ado etgan, adabiyot darslarining samarasi ta’minlangan bo‘ladi²⁸⁷.

MULOHAZA VA JARAYON

Olimlarning fikricha, zamonaviy dunyoda hayotdagi muvaffaqiyat kaliti emotsional intellekt deb ataladigan, ya’ni his-tuyg‘ularga egalik qilish va ularni boshqarish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Inson miyasidan kuniga taxminan 50-70 ming fikrlar o‘tadigan bo‘lsa, bu fikrlar muammolarni yanada kuchaytiradigan tegishli hissiyot va emotsiyalar uyg‘otishi aniqlangan. Demak, emotsional vaziyatlarning paydo bo‘lish sabablari kabi emotsional tafakkurning ongda aqliy asoslari mavjud. Adabiyot fanining kuchi mana shunda. Adabiy jarayonda fikriy munosabatlar, hissiy o‘zgarishlar ko‘p kuzatiladi. O‘qituvchilar bu

²⁸⁴ De Bono “lateral thinking” (laterativ fikrlash) tushunchasini joriy etgan.

²⁸⁵ Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016, – 14-b.

²⁸⁶ Mizayeva Z., Jalilov K. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Academ Space, 2024, – 47-b.

²⁸⁷ To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016, – 9-b.

munosabatlarda qadriyat, ilm, hikmat, ezgulik fazilatlarini anglab ergashishga, qadrlashga, xulosalar olishga yo‘naltiradi. Q. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek: “Biz dunyoni tafakkur bilan egallaydigan millatga aylanishimiz kerak”²⁸⁸.

Adabiyot darslarida o‘quvchilar fikrlashida ongdagi to‘g‘ri qarorlarni topishga o‘rgatish, fikrlarini asoslash yo‘llarini yoritishda o‘qituvchiga lateral yondashuv birmuncha qulayliklar yaratadi. Bu yondashuv masalalarga yangicha qarash yoki an’anaviy chegaralardan chiqib tahlil qilishga asoslangan. Ma’lumki, Edvard de Bono bu lateral fikrlash sifatida muammolarga yechimlar topish yo‘llari, nostandart fikrlash, yon tomondan fikrlash tushunchalarini birinchi marta 1967-yilda qo‘llagan. Bunday fikrlash insonlar uchun muhimligini har tomonlama izohlar va tavsiyalar umumlashmasidan iborat kitoblar, psixologik ko‘rsatmalar yaratgan. Tadqiqotchi muammolarga standart yondashuv emas, balki yangicha yondashuv orqali qarashni taklif qiladi.

Bu haqida xorij olimlarning tadqiqot ishlarga murojaat qilinsa quyidagilar ayonlashadi:

- Aql xaritasi asoschisi Toni Byuzan fikrlashda “aqliy tartibsizlikni kamaytirish, tasavvurni kuchaytirish va ijodiy g‘oyalarni rag‘batlantirish; haqiqiy maqsadlaringiz nima ekanligini tushunish”²⁸⁹ga chorlagan;

- Joy Pol Gilford fikrlashni xotira bilan bog‘liqliklarini asoslaydi, xotiraga kirish va undan foydalanish haqida “biror savol yoki vaziyatga yagona javob uchun xotirani qidirish – konvergent ishlab chiqarish”²⁹⁰ sifatida baholagan;

- Robinson xatodan qo‘rqmaslik haqidagi: “o‘quvchi o‘z tilida xato qilishni istamasa, uning tildan foydalanish qobiliyati hech qachon rivojlanmaydi”²⁹¹ kabi ilmiy talqinlarini asoslagan;

- “Aqliy hujum” (brainstorming) konsepsiyasi asoschisi Aleks Osborn ijodkorlik tasavvurdan ko‘ra ko‘pligini ta’kidlash bilan birga tanqidiy fikrlashni ijodiy fikrlashdan ustun qo‘ymaslikka, g‘oyalar bo‘yicha mulohaza yuritmaslik, ya’ni keraklisini tanlashga chaqiradi. “Ijodkorlik – bu kran kabi yoqib-o‘chirishimiz mumkin bo‘lgan narsa. Bu ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan hayotimizdagi tajriba va ifodadir”²⁹² – degan. Shuningdek, Osborn tomonidan “g‘oyalarni yaratish samaradorligi”ga hissa qo‘shadigan ikkita asosiy tamoyil taklif qilingan:

- g‘oyalar bo‘yicha mulohaza yuritishni to‘xtatish;
- sifatni hosil qiluvchi miqdorga intilish.

Tadqiqotchi olimlarning xulosalariga ko‘ra ijodkorlik orqali inson ruhiyatidagi tashqi va ichki qiziqishlarini yuzaga chiqarish mumkin. Ijodiy fikrlashni o‘stirish – ta’lim faoliyatining omillari, darajasi yoki ishtirokchilaridan qat’i nazar, zamonaviy ta’limning zaruriy shartlaridan biridir. Nostandart fikrlash ham ijodiy fikrlash yo‘nalishida ko‘rganimizda, insoning bilim va tajribalari asosida uyg‘unlashgan yangi bir g‘oyani kashf etish deb baholash mumkin. Ta’kidlangan o‘quvchilarning xotiralarini boyitish, xatolarini o‘zlari tushunish, aqliy

²⁸⁸ <https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/11/kutubxona-qozoqboy-yoldoshev/>

²⁸⁹ <https://4brain.ru/blog/kljuchevye-idei-toni-bjuzena>

²⁹⁰ <https://www.cocreativity.com/handouts/guilford.pdf>

²⁹¹ <https://www.mindbrained.org/2024/09/do-schools-kill-creativity>

²⁹² <https://geniusrevive.com/aleks-osborn-avtor-brejnstorminga-i-metoda-tvorcheskogo-resheniya-problem>

tartibsizliklarini anglash, qarorlarni tanlashda yangicha fikrlash adabiy maqsadlarga monand keladi. Buni biror mavzu doirasida ko‘rib chiqsak. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinflarida Mirtemirning “Shudring²⁹³” she‘ri organiladi. Mavzuni lateral yonlashuv asosida tashkil etish she‘rning ichki ma‘nosini, undagi ramzlarni, obrazlarni har xil kontekstlar va talqinlar orqali o‘zgartirishni talab qiladi. Muammoga odatiy yoki standart yo‘ldan emas, balki noodatiy, ijodiy va ko‘p burchakli yondashuvni to‘g‘ri tashkil etsa o‘quvchilar ramziy ifodalar orqali boshqa muqobil fikrlar ustida ishlanadi. Masalan, mutolaadan oldin quyidagicha savollar berish mumkin:

Shudringni ilk bor qachon va qayerda ko‘rgansiz?

Shudring tabiat uchun foydalimi?

Shudring tushishining fasllarga aloqasi bormi?

Shudringning bug‘lanishi nimalarga bog‘liq deb o‘ylaysiz?

Bu kabi savollar o‘quvchilarda shudring haqidagi o‘y-xayollarini eslashga, ko‘rgan-bilganlarini xotirlashga olib keladi.

Muallif “Shudring” she‘rida shudringni yaltiroq, momiq tasvirlarini o‘quvchilardagi beg‘ubor onlariga, insonlar ko‘nglidagi tinchlikka o‘xshatadi. She‘rda tabiat va inson o‘rtasidagi ma‘naviy aloqalar, inson his-tuyg‘ularining musaffoligi va hayotning o‘tkinchiligi uyg‘un tarzda ifodalagan.

Tong belgi bergandanoq

O‘tib osma ko‘prikdan,

Jar ketiga chopardim –

Jar keti o‘zga olam.

Tongni kuzatganlar yaxshi bilishadi, tong insonga hayratlanarli manzaralarni taqdim etadi. Muallif tasvirlagan tabiatning go‘zalligi chopayotgan bolalarning quvonchli damlari bilan uyg‘unlashib ketganki, oddiy osma ko‘prik ham o‘zida nafosat va noziklikni mujassam etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning she‘rni o‘qishida ifodalilikka ahamiyat berishi lozim. She‘r o‘qishning ifodaliligi uning jozibasini oshirsa, nutq ta’sirchanligi qalbni ruhlantiradi. O‘quvchilar she‘rni ifodali o‘qish davomida “tong” so‘zidan oldin “chopish”, “chopish zavqi”ni his etishadi. O‘qituvchi adabiy jarayonda muallifning jar tasviri misolida tongning otishiga berilgan ishoralarni anglatish, tasviriy vositalarni tushuntirishda “Tong belgisini nimalarda ko‘ramiz?”, “Osma ko‘prik qanday bo‘ladi?”, “Jar xavflimi?” kabi savollar orqali o‘quvchilar fikrini muayyan maqsadga yo‘naltiradi. O‘quvchilar bu savollar haqida o‘ylar ekan, tong belgilari, shudringning tabiat hodisasini tasavvur qilishadi. Tong belgisi haqida ayrimlari “qizg‘ish alvon rangdagi qora tunning oqarishi” – desa, ayrim o‘quvchilar ramziy ma’noda “yangilanish, yangi umid, imkoniyat” deyishi mumkin. Bu o‘z-o‘zidan muayyan bir so‘zga

²⁹³ Adabiyot 5-sinf darsligi. Q Yo‘ldoshev va boshqa. Edutainment. Toshkent: 2024, 93-bet.

boshqa nuqtayi nazardan qarashni taqozo qiladi. Zero, “Gap faqat yaxshi topilgan o‘xshatish-u aniq ifodalarni topa bilishda emas. Badiiy asarda, shu jumladan, bolalar uchun yozilgan asarlarda ham ma’lum bir fikr oqimi va aniq tugallik bo‘lishi muhimdir”²⁹⁴. O‘qituvchi jarayonda grafik tasvir haqida to‘xtalmasada, fikr oqimida asoslar keltirishiga, xulosalangan bo‘lishiga ahamiyat berishadi.

She’rdagi ramziy ifodalarni tushuntirishda yondashuvga mos bo‘lgan “Tasodifiy so‘z” metodini qo‘llash va guruhlarda ishlash tavsiya etiladi. Metodning asosiy maqsadi – muammo bo‘yicha yuqori, aniq va original qarorlar va yangi g‘oyalar topishdir. Shuningdek, tasodifiy so‘z tanlash, she’rdagi ramziy so‘zlarni tasodifiy so‘zga bog‘lash va so‘zlarning tagma’nolarini tushunishni nazarda tutadi. Guruhlar tomonidan tanlangan tasodifiy so‘zlar jadvalli grafiklarda taqdim etishi yoki tanlangan so‘zlarni ixtiyoriy yozib borishlari tushuntiriladi. Badiiy tasvirlar bilan o‘quvchi tomonidan idrok etilgan tasvir (so‘z) bir xil bo‘lishi tahlil me‘yorini anglatmaydi, o‘quvchilar hayotiy ko‘rganlariga mos o‘z fikrlarini ifodalashi va asoslashi muhim. Badiiy tasvirlar insonni nafaqat olam, odam, tabiatni his qilishga, balki uning chuqur ma’nolarini anglashga chaqiradi.

To‘ldirib chanoq-chanoq
Go‘yo sutdek ko‘pikdan,
Tutgandek g‘oyib qo‘llar –
Jilvagar ko‘zga olam.

Muallif shudringni chanoqlar, barglar ustida suv aksi sutdek yaltirashiga o‘xshashini, qo‘llar bilan qo‘yib chiqqandek jilvalanishini o‘zgacha nafis tasvirlagan. “Aqlning eng yaqin yordamchisi fikr va tabiat, eng uzoq yordamchisi beshta sezgidir. Sezgilar bilganlaridan bir bo‘lagini fikrga yetkazsa, fikr uni yangilishlardan tozalab aqlga topshiradi”²⁹⁵. Chanoqni va u siqilganda sizib chiqadigan sutdek ko‘pikni bu yoshdagi shahar o‘quvchilari ko‘rmagan bo‘lishi mumkin. Demak, aqlning uzoq yordamchilari ish bermaganida, chanoq ko‘pigini ko‘rmagan o‘quvchilarga ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar chanoq ichida sutdek ko‘pikni shudringga qiyoslanganligi va qo‘llarda terib chiqilgan tomchilarning ma’no tashishini tahlil orqali yaxshiroq tushunadilar. Tahlildagi estetik go‘zallik asarning jozibasini anglash bilan birga o‘quvchilar tuyg‘ularini o‘zgartirishga qodir.

G‘o‘za yaproqlarida,
Ko‘katlarning bargida,
Chechaklarning bag‘rida
Yaltirar lak-lak inju.

Shudring shunchalik nozikki, o‘quvchilarni ham noziklik, ziyraklikka chorlaydi. Adabiy jarayonda “g‘o‘za”, “ko‘kat”, “chechak”ni ko‘z oldiga keltira olishi uchun “bargi”, “bag‘ri” so‘zlari urg‘u berish lozim. Shunda, durdek yaltiragan inju chechakning qat-qat bag‘riga kirib

²⁹⁴ Qo‘shjonov M. Mohiyat va badiiyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977, 198-b.

²⁹⁵ Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi muallif O. Hasanboyeva. – Toshkent:, O‘zbekiston nashriyoti, 1993, – 93-b.

yashiringanini, uni faqat yaltirashi orqali ko‘rish mumkinligiga ishoralarni o‘quvchilar tahlil orqali hamda tabiatning bir qismi, balki inson his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi ramzlar sifatida farqlaydilar.

Qiyosiy, ramziy ishoralar yuzasidan quyidagi savollarga murojaat qilinadi:

- Shudring qanday rangda bo‘lishini istardingiz?
- Shudring – hayotning sof bir lahzasi deganda nimani tushunasiz?
- Shudring hayotdagi kichik quvonchlarning timsoli bo‘lishiga fikr bildiring.
- Ong yoki fikrlaringizdagi “shudring”ni izohlang.

Bahs-munozarada shudring vaqtning tashqi olamdagi aksi, o‘tkinchi fikrlarga o‘xshatish yoki uning haqiqiy shakli doimo qalbda yashiringan degan xulosalar uchraydi. Ranglar keltirishda, o‘quvchi quvonchli damlariga qiyoslash mumkin. O‘qituvchi hech kim xayoliga keltirmagan muqobil fikrlarga ahamiyat berishi lozim.

Yaltirar suyri tepa,
Yaltirar qir uzunchoq,
Kelinlar taqinchog‘i,
Uzuk ko‘zlarimi yo.

O‘quvchilarni tahlilga tortishda, asosan. ijodiy va g‘ayrioddiy usulda misralarni tahlil qilish va yangi nuqtayi nazarni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “suyri tepa” (odatda qandaydir balandlikka ishora) so‘zini shudringning bir-biriga yaqinligidan namlangan qirlarning yaltirab ko‘rinishini inson yuqori natijalarga erishish sifatida izohlar berishi muhim.

Shudring shaklini uzuk shakliga o‘xshatish va qiyoslashlarda asoslarni so‘rab turish hamda topshiriqqa mos guruhlarining yozib borayotganlarini kuzatib borish zarur.

Yo‘q, bu giryon ko‘zlarning
Yarqiroq zamzamasi.
Kechasi onam tag‘in
Yig‘labdi-da chamasi...

Misradagi giryon ko‘z “mushtoqlik”, “chanqoqlik” belgisi sifatida, muallif, o‘sha yaltiroq shifobaxsh suvni ko‘zdagi nurga, nurdan chiqqan injuni onaning yoshlariga qiyoslagan. O‘quvchilarda misradagi da-yuklamasining o‘zi mazmunga biror sirni olib kirganini, bu sir har qanday narsa bo‘lishligi haqida tasavvurlar uyg‘otadi. O‘sha yashirin narsa cheksizlik ifodasi, kechasi – sokinlikda kelgan onaning ko‘z yoshlarida farzandga bo‘lgan cheksiz mehr, ularning baxti uchun qilgan qayg‘u va harakatlari gavdalanadi. Bu yoshda ular zamzama bilan giryon ko‘zning aloqalarini izohlashga e‘tiborsiz bo‘lsalar-da, eng yaqin ishongan va suyangan onalarining ko‘z yoshlari haqida o‘ylanib qolishi tabiiy. O‘quvchilar onasi ko‘zlardagi tomchilar nimadandir ko‘ngli to‘lmaganini xayolan his qiladi, balki, onasi oldidagi vazifalarini o‘ylaydi. Bu achinish ularga yordam berish, xatolarini tuzatish ehtiyoji paydo qiladi. Poetik matndagi muallifning undivdual orfografiysidagi yuklama (yig‘labdi-da) grafik vizuallikni oshirish bilan birga mehrni tuydirishga hizmat qilgan.

Guruhlar o‘zlari yozgan tasodifiy so‘zlariga shudringga aloqadorligini, shudringning qaltirab turish holati tasviri, injuga qiyoslanganligi, uning musaffoligi, ayni vaqtda o‘tkinchiligi va zaifligi bog‘lashlarida umumlashtirish xususiyatiga e‘tibor berish lozim, bog‘lash mumkin bo‘lmagan holatlarda boshqaga almashtirishga ruxsat berilmasligi kerak.

Birinchi guruh ishlaridan namuna:

She‘rdagi tasviriyy ifoda va vositalar		Tasodifiy so‘zlar va uning ma‘nolari	
shudring		vaqt	o‘tkinchi
g‘o‘za	yaproq	yangilanish	
chechak	bag‘ri	umid	ilinji
uzuk	ko‘z	tor	belgilangan maqsad
suzuk		oqim	
giryon		doira	
suyri		latofat	silliq
tapa	balandlik	maqsad	harakat
zamzama	suv	ko‘z yosh	ezgu his-tuyg‘ular
tag‘in	takrorlanayotgan jarayon	intilish	mehr-shafqat

Ikkinchi guruh ishidan namuna:

Fikrlar	Nostandart fikrlar
Tong belgi bergandanoq	
Tong otishi	uyg‘onish
Go‘yo sutdek ko‘pikdan	
Oq rangli shirali suv	soflik
Chechaklarning bag‘rida	
Gul barglari orasidagi suv tomchilari	nasiba
Yaltirar qir uzunchoq	
Keng vohaning yaltirab tovlanishi	orzular
Uzuk ko‘zlarimi yo	
zeb-u ziynat, tomchi shaklidagi suvga qiyoslangan ashyo	qadriyat

Yondashuvning muhim jihati shundaki, muqobili deganda, falsafiy fikrlar muhokamasiga aylanib qolmaslikni unutmaslik muhim. Noodatiy fikrlar har doim oddiy so‘zlarni qiziqarli uslubda ifodalashni talab qiladi. Guruhlar ishi taqdimotida o‘qituvchilar fikrini bo‘lmasligi, tasodifiy so‘zlarini asoslashga urg‘u berishi, o‘xshamagan bog‘lanmagan holatlarini muhokama qilmasligi, misralardagi mantiqdan tashqari mazmun birliklarini anglash, bir so‘zni aytish uchun ham teran o‘ylashga chorlashi muhim hisoblanadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, tafakkur miya, ong bilan bog‘lanar ekan, o‘quvchilarning miyasini tinimsiz mashq qildirish bu o‘z-o‘zidan maxsus neyroariqchalar hosil qilsa, bu ulardan ichki nigoj uchun javob beruvchi impuls paydo qiladi. O‘quvchilarni bunday turli qarashlarga yo‘naltirish ularda fikrlarining to‘laqonli bo‘lishiga asos yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilinganda, adabiyot o‘qitishda tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, kreativ, ijodiy yaratuvchanlik kompetensiyalarni rivojlantirish, dars jarayonlarining amaliy jihatlariga e’tibor qaratish, raqobatbardoshlikni oshirish bugungi kunda nafaqat zarurat, balki ehtiyojga aylandi. Binobarin, bugungi akadek infilatsiya jarayonida, mafkuraviy maydonlarga rishtasiz tutashgan minbardagi o‘qituvchilar hatto tasavvurimizdan ortiq ma’noda javobgardirlar. Dars mashg‘ulotlarini samarali o‘tkazish uchun o‘qituvchi o‘qishdan oldin – o‘quvchilarni o‘qish faoliyatiga tayyorlash, kontekstni o‘rnatish, ularni noma’lum lug‘at bilan tanishtirish, qiziqish uyg‘otish, poetik mazmunda tafakkurini rivojlantirish, fikrini tinglash, taqdimot paytida o‘zaro umumiylikni ta’minlash asosiy vazifasidir. Zero, muallifning poetik mahorati, shaxsiyatiga aloqadorlik (jarlik, ko‘priklar muallifning yashash o‘rinlari bilan bog‘liqlik) adabiyot fani tabiat va boshqa fanlar bilan aloqalari kabi jihatlarini tushunish uchun o‘qituvchining ko‘magi zarur. O‘qituvchilar istasa, hatto, bahoriy kayfiyatda mehrli iliq so‘zlari ila qalblarida bir soatlik darsning o‘zida ezgulik urug‘larini qadashga qodir.

Lateral yondashuv samarasi – yoshlarning qaysi kasbga qiziqmasin tafakkurini boyitish, xato qilishdan cho‘chimaslik, hayot muammolarni yengib o‘tish, o‘ziga nisbatan ishonchi balandligi, Vatani – onasiga bo‘lgan muhabbati, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi ijobiy natijalari sifatida xarakterlanadi. Bu o‘z-o‘zidan ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarda egallagan o‘rni, milliy o‘quv dasturlarga mosligi va yoshlarning jahon bilan bo‘ylasha oladigan salohiyati borligiga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston. – Toshkent, 2016.
2. Abu Rayhon Beruniy. O‘ylar, hikmatlar, naqlar, she’rlar. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi A.Irisov, Yosh gvardiya. – Toshkent, 1973.
3. Abdullayeva M. Adabiy ta’limda innovatsion yondashuv. “BOOKMANIY PRINT” – Toshkent, 2024.
4. Тўхлиев Б. “Адабиёт ўқитиш методикаси” Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. – Тошкент, 2016.
5. Sharafiddinov O. Iste’dod jilolalari. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, – Toshkent, 1976.
6. Yo‘ldoshev. Q., Kambarova S. va boshqalar 5-sinflar uchun darslik – Тошкент, Novda edutainment. 2024.

7. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi muallif O. Hasanboyeva. “O‘zbekiston nashriyoti”. – Toshkent, 1993.

8. Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Тошкент:, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.

9. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/11/kutubxona-qozoqboy-yoldoshev>

10. <https://4brain.ru/blog/kljuchevye-idei-toni-bjuzena>

11. <https://www.cocreativity.com/handouts/guilford.pdf>

12. <https://www.mindbrained.org/2024/09/do-schools-kill-creativity>

13. <https://geniusrevive.com/aleks-osborn-avtor-brejnstorminga-i-metoda-tvorcheskogo-resheniya-problem>